



KAMBAG'ALLIKNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI VA UNI QISQARTIRISH YO'NALISHLARI

Asatova Dildora

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0000-3367-6785

dildora.asatova94@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizdagi kambag'allikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va uni qisqartirishning nazariy jihatlarini va shu bilan bir qatorda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi va mamlakatimizdagi kambag'allik darajasi va uni kamaytirish afzalliklari keltirilgan. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'nalishlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, iqtisod, ijtimoiy, ishsizlik, barqaror, kredit, nochor, mehnat bozori, aholining turmush darajasi, tadbirkorlik.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ БЕДНОСТИ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЕ СОКРАЩЕНИЯ

Асатова Дилдора

*Навоийский государственный
горно-технический университет*

Аннотация. В статье представлены социально-экономические последствия бедности в нашей стране и теоретические аспекты ее сокращения, а также опыт зарубежных стран в области сокращения бедности, уровень бедности в нашей стране и преимущества ее сокращения. Приведены направления реализации мер по сокращению бедности.

Ключевые слова: бедность, экономика, социальная сфера, безработица, стабильность, кредит, беспомощность, рынок труда, уровень жизни населения, предпринимательство.

SOCIO-ECONOMIC CONSEQUENCES OF POVERTY AND DIRECTIONS OF ITS REDUCTION

Asatova Dildora

Navoi State University of Mining and Technologies

Abstract. This article presents the socio-economic consequences of poverty in our country and theoretical aspects of its reduction, as well as the experience of foreign countries in reducing poverty and the level of poverty in our country and the advantages of reducing it. Directions for implementing poverty reduction are given.

Keywords: poverty, economy, social, unemployment, stable, credit, helpless, labor market, standard of living of the population, entrepreneurship.

Kirish.

Kambag'allik – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri bo'lib, u nafaqat yakka shaxslar yoki oilalar, balki butun mamlakat taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Kambag'allikni qisqartirish mamlakatda iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va aholi turmush darajasini yaxshilaydi. Kambag'allik ko'rsatkichining o'zgarishiga turli xil iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumldan:

- ishsizlik va mehnat bozoridagi nochorlik ya'ni, ish bilan ta'minlanganlik darajasidir;
- ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlaridagi kamchiliklar ya'ni, bu orqali ma'lum sohada bilim va malakaga ega bo'lgan yoshlarga o'z-o'zini band qilish, yangi ish o'rinlari va xususiy tadbirkorlik ishini boshlashi uchun zamin yaratiladi;
- iqtisodiy resurslarni noteng taqsimlanishi;
- korrupsiya va samarasiz boshqaruv;
- tabiiy ofatlar va ijtimoiy nizolar.

Bu omillar aholining ma'lum bir qatlamini iqtisodiy faollikdan chetlashtiradi va ularning daromad manbalari yetishmasligiga olib keladi Kambag'allik bu insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi va kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik – bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi (BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining, 2017).

Adabiyotlar sharhi.

Ushbu mavzu doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganib chiqildi. Shu jumladan xorijiy iqtisodchi olimlardan Chen va Ravallionlar (1997) o'z ishlarida ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda tengsizlik darajasi rivojlangan mamlakatlarnikiga o'xshash ekanligi yoki pastligi, bir nechta davlatlar ma'lumotlaridan tahlillarni amalga oshirishda foydalangan holda olib borgan. Ularda bir qator tadqiqotlar o'sish ko'rsatkichi tengsizlik na ijobiy, na salbiy ta'sir ko'rsatmasganligini keltirib o'tgan.

Birdsall va Londonolarning (1997) fikricha esa, qashshoqlikning o'sish egiluvchan deb keltirgan va iqtisodiy rivojlanishning boshlang'ich darajasi va daromadlar tengsizligi bilan bog'lash orqali kerak deb fikrlar keltirilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarimizdan Kalonov (2021) o'zining ilmiy ishlarida "kambag'allik" tushunchasi shu kungacha "yopiq mavzu" bo'lganligini keltirgan, u "kam ta'minlanganlik", "ehtiyojmandlik", degan tushunchalardan farq qiladi, deb ta'kidlagan.

Xasanov (2021) esa, O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash haqida gapirgan, muhtoj odamlarga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy va tabiiy yordam ko'rsatish orqali qashshoqlik muammosidan chiqish mumkin emasligini keltirib o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning kambag'allikni ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va uni qisqartirish yo'nalishlari buyicha maxaliy amaliyot va xorijiy dalatlar tajribalari masalalari bo'yicha izlanishlari, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kambag'allikni kamaytirish nafaqat axloqiy burch, balki iqtisodiy zarurat hamdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun davlat va jamiyatning hamkorligida kompleks yondashuv talab etiladi. Kambag'allikni qisqartirish orqali barqaror rivojlanish va mamlakat farovonligiga erishish mumkin. Kambag'allikni qisqartirish – iqtisodiy o'sishning barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Butun dunyoda, shu jumladan O'zbekistonda ham, kambag'allikni kamaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash sohalaridagi islohotlar, kambag'allikni qisqartirishga va mamlakat farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, 2020 yilda amalga oshirilgan "Har bir oilaga yordam" dasturi orqali muhtoj oilalarga moliyaviy yordam ko'rsatilgani natijasida kambag'allik darajasi sezilarli darajada pasaydi. Kambag'allikni qisqartirish va mamlakat farovonligini oshirish o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish orqali kambag'allikni qisqartirish mumkin. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bu yo'nalishda samarali natijalar bermoqda va kelgusida ham bu jarayonni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy davlatlarda amalga oshirilayotgan kambag'allikni qisqartirish dasturlari O'zbekiston uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan qator samarali mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Bu kabi dasturlarning O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi, mahalliy ehtiyojlarga javob berish va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'ladi. Masalan Xitoyda kambag'allikni qisqartirishda dunyodagi eng katta va samarali dasturlarning birini amalga oshirgan. 2012-2020 yillarda mamlakat 800 milliondan ortiq odamni kambag'allikdan chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Buning asosida maqsadli kambag'allikni qisqartirish (Targeted Poverty Alleviation) tizimi joriy etilgan bo'lib, u quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi ya'ni, maqsadli yordam tizimini joriy etish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar, ekologik rivojlanish va ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish kabi yo'nalishlar. Xitoy va Germaniyaning kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan tajribalari dunyoda eng ilg'or deb hisoblanadi. Bu davlatlar, ayniqsa, maqsadli yordam, ijtimoiy ta'minot, mikrokreditlar va kasb-xunar ta'limi orqali kambag'allikni qisqartirishga katta e'tibor berishgan. Amerika va Turkiyada ham kambag'allikni qisqartirishda muhim dasturlar amalga oshirilgan, lekin ularning ta'siri har xil darajada. Bu degani, avvalgi tajribalar ko'rsatadiki, 14 ta davlatda iqtisodiy o'sish kuzatilganida, kambag'allik darajasi ham sezilarli ravishda pasaygan. Demak, iqtisodiy o'sish va qashshoqlikning pasayishi orasida to'g'ri ijobiy bog'lanish mavjud. Iqtisodiy o'sish ish joylarini yaratadi va shuning uchun kambag'allarning asosiy hamda ko'pincha yagona aktiv bo'lgan ishchi kuchiga talab kuchayadi. O'z navbatida, bandlikni oshirish yuqori o'sishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. So'nggi 10 yil ichida jahon iqtisodiyotidagi kuchli o'sish hozirda dunyoning mehnatga layoqatli aholisining aksariyati ish bilan band ekanligini anglatmada, dunyoning har bir mintaqasida, yoshlarning ishsizligi asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar butun dunyo bo'ylab mehnatga layoqatli aholining 25 foizini, ammo ishsizlarning 47 foizini tashkil qiladi.¹

O'zbekistonda kambag'allik darajasini o'rganish iqtisodiy islohotlarning samaradorligini baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda kambag'allik darajasi oxirgi yillarda sezilarli o'zgarishlarga ega bo'ldi. 2021-yilda kambag'allik darajasi 17 foiz atrofida baholangan bo'lsa, keyingi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari va bandlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli bu ko'rsatkich bosqichma-bosqich pasayib bordi. So'nggi statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2023-2024 yillarda kambag'allik darajasi qariyb 11-12 foiz atrofida shakllandi. Bu esa aholining moddiy farovonligi yaxshilanayotganini ko'rsatsada, hali ham

¹ Global Economic Prospects, 2017

sezilarli muammolar mavjudligini anglatadi. Endi xududlar kesimida kambahallik darajasini baholash natijalarini ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Kambag'allik darajasini baholash natijalari

№	Hududlar	Yillar		
		2023	2024	2025
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	13,6	10,8	7,6
2.	Andijon viloyati	11,9	9,5	6,6
3.	Buxoro viloyati	11,8	8,7	5,4
4.	Jizzax viloyati	14,2	11,8	7,2
5.	Qashqadaryo viloyati	11,5	9,6	6,4
6.	Navoiy viloyati	7,6	5,7	3,4
7.	Namangan viloyati	10,4	7,6	5,3
8.	Samarqand viloyati	10,5	7,5	5,4
9.	Surxandaryo viloyati	10,6	9,3	4,9
10.	Sirdaryo viloyati	13,8	11,3	7,4
11.	Toshkent viloyati	10,2	8,0	4,5
12.	Farg'ona viloyati	10,1	8,6	5,0
13.	Xorazm viloyati	14,1	11,9	5,9
14.	Toshkent shahri	7,9	7,3	4,4
	Jami	11,0	8,9	6,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistik ma'lumotlari.

Hududlar kesimida kambag'allik darajasi notekis taqsimlangan bo'lib, ayniqsa, qishloq joylarda kambag'allik darajasi shahar hududlariga nisbatan yuqoriroq. Bunga bir qator omillar, jumladan, ish o'rinlarining yetishmasligi, mehnat unumdorligining pastligi, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi va aholining malaka darajasidagi farqlar sabab bo'lmoqda. Shuningdek, oilaviy tarkib, ta'lim darajasi va demografik yuklama ko'rsatkichlari ham kambag'allik xafsinini oshiruvchi omillar qatoriga kiradi.

Kambag'allikning iqtisodiy oqibatlari haqida aytadigan bo'lsak, mablag' yetishmasligi va moddiy tanglik ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- talab va taklif qisqarishi natijasida YaIM o'sish sur'ati pasayadi;
- budjet daromadlari kamayadi va tashqi qarz hajmi oshadi;
- inflyatsiya va ishsizlik oshadi;
- iqtisodiy inqiroz va iqtisodiy qaramlik yuz beradi;
- mamlakatning xalqaro reytingdagi o'rnini pastlaydi va natijada investitsiya jalb qilish qobiliyati ham pasayadi.

Kambag'allik nafaqat moddiy jihatga balki, ijtimoiy hayotga ham ijobiy ta'sir qilmaydi. Ijtimoiy oqibatlari quyidagi muhim jihatlardan iborat:

- sifatli ta'lim yetishmasligi sababi insonning salohiyati va malakasi pasayadi, ba'zi hollarda ta'lim olish jarayoni butkul cheklanadi;
- alkogolizm va giyohvandlik oshib boradi;
- jinoyatchilik darajasi ham ortib boradi;
- boqimandalik va norozilik kayfiyati yuzaga keladi;
- bolalar o'limi darajasi va aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi pasayadi va o'z navbatida aholining turmush darajasi ham sezilarli ravishda pasayadi.

Kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiy rivojlanish jarayonida moddiy va nomoddiy imtiyozlardan foydalanish va daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning oqibati sifatida izohlanadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kambag'allik bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlari, jumladan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Kambag'allik aholining munosib hayot kechirishiga to'sqinlik qiladi, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va barqaror iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi. Shu bois kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatida ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Kambag'allikni kamaytirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- yangi ish o'rinlari yaratish va aholini bandlik bilan ta'minlash;
- Kasbga yo'naltirish dasturlarini kengaytirish, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar uchun.
- Hududiy rivojlanish dasturlarini kuchaytirish, qishloq joylarda ish o'rinlarini ko'paytirish.
- Ijtimoiy yordamni raqamlashtirish, yordam haqiqatan muhtojlarga yetib borishini ta'minlash.
- Sog'liqni saqlash va ta'limga investitsiyalarni oshirish, kambag'allikning uzoq muddatli sabablarini bartaraf etish.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Ashurova N, Chekulaeva K. (2024) O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirishda ijtimoiy sheriklikning roli. *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*. 1(1):232-40.

Birdsall, N. and J.L. Londono (1997), *Asset Inequality Matters: An Assessment of the World Bank's Approach to Poverty Reduction*, *American Economic Review*, 87(2), *AEA Papers and Proceedings*: 32-37.

BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining (2017) "Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma"sidan, Nyu-York, Jeneva.

Chen and Ravallion (1997), Easterly (1999), Dollar and Kraay (2002), (Ravallion, 2004, 2007).

Kalonov M. (2021) "Kambag'allikni qisqartirish: imkoniyat va harakatlar qanday natija beradi?" «Xalq so'zi» gazetasining 11 fevral 30-soni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"dagi PF-158-son Farmoni.

Ашурова, Н.Б., Очиллов, А.О., Чекулаева, К., & Худояров, А.А. (2025). Зеленая экономика и устойчивое развитие: эффективность внедрения корпоративной социальной ответственности. *Экономический профессиональный журнал*, 5(2), 60-68. <https://eproff.ru/index.php/eproff/article/view/110>.

Хасанов Р. (2021) Проблемы бедности: сущность и факторы // *Экономика: анализы и прогнозы*. – № 1 (12). – С. 19-23.